



## MODELS OF IMPLEMENTATION OF TAKAFUL OPERATIONS AND THEIR PROCEDURE

**Usmanov Nematjon Gulomovich**

Student of the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan. E-mail: nejon@live.com

Tel: +998998554400

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15186758>

### ARTICLE INFO

Received: 04<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 09<sup>th</sup> April 2025

Online: 10<sup>th</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Insurance market, insurance companies, takaful, general takaful, family takaful.*

### ABSTRACT

*The article discusses the takaful market, the operations carried out in it, aspects that differ from traditional insurance services, models for implementing takaful operations, their essence and procedure.*

## TAKAFUL OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH MODELLARI VA ULARNING TARTIBI

**Usmanov Nematjon Gulomovich**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi.

E-mail: nejon@live.com

Tel: +998998554400

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15186758>

### ARTICLE INFO

Received: 04<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 09<sup>th</sup> April 2025

Online: 10<sup>th</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Sug'urta bozori, sug'urta kompaniyalari, takaful, umumiy takaful, oilaviy takaful.*

### ABSTRACT

*Maqolada takaful bozori, unda amalga oshiriladigan operatsiyalar, an'anaviy sug'urta xizmatlaridan farqli jihatlar, takaful operatsiyalarini amalga oshirish modellari, ularning mohiyati va tartibi haqida so'z boradi.*

### Kirish.

Sug'urta bozori jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan munosabatlar tizimi bo'lib, u mijozlar faoliyatida yuzaga keladigan sug'urta hodisalari natijasida yetkazilgan zararni sug'urta to'lovlari orqali qoplashni nazarda tutadi.

Takaful tizimi an'anaviy sug'urtadan farqli ravishda o'zaro yordam va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Bu modelda ishtirokchilar o'z mablag'larini umumiy jamg'armaga qo'shib, zarar ko'rgan a'zolarga ko'mak beradi. Takaful sug'urtasi islomiy moliyaviy tamoyillarga mos kelib, foiz va noaniqlik (g'ararlik) elementlarini chetlab o'tadi.



O'zbekiston Respublikasida islom moliyasining mezon va tartiblarini ishlab chiqish va an'anaviy moliya tizimiga integratsiya qilinishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-sentyabrdagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmonida “kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish” ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-108-son Qarorida “Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga 2025-yil 1-yanvarga qadar ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takaful tamoyillarini va mahsulotlarini bosqichma-bosqich joriy etish takliflar kiritish vazifasi yuklatilgan” [2].

Mazkur farmon va qarorlarning samarali ijrosini ta'minlash maqsadida mamlakatimiz sug'urta xizmatlari bozoriga takaful operatsiyalarini joriy etish va ommapobligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Takaful – islomiy sug'urta tizimi bo'lib, u an'anaviy sug'urtadan farqli ravishda o'zaro yordam tamoyiliga asoslanadi va shariat qoidalariga mos keladi.

Islom moliya tizimida sug'urta masalasi qaysi davrda paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, sug'urtaning ayrim shakllari hatto islomgacha bo'lgan Arabistonda ham qo'llanilgan. Ayrim tadqiqotlarda islom sug'urta tizimi shakllanishini vira to'loviga (qotillik yoki jarohat yetkazish holatlarida jabrlanuvchi tomon yoki uning oila a'zolariga to'lanadigan tovon puli) bog'lanadi [3].

Shuni ta'kidlash kerakki, vira to'lovining sug'urta xususiyati masalasi nafaqat islom moliyasiga oid adabiyotlarda muhokama qilingan. Islom huquqshunos olimlarining sug'urtaning dastlabki shakli sifatida vira to'lovi qarashlariga o'xshash nuqtai nazar C.A. Рыбников tomonidan ilgari surilgan. Uning fikriga ko'ra, agar o'tmishga nazar tashlasak, sug'urta kontekstida birdamlikni tartibga solish an'alarini ko'rish mumkin [4].

S.A. Рыбниковdan farqli o'laroq, takaful tarixi bo'yicha yana bir rus olimi B.K. Райхер vira va sug'urta o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri o'xshashlik qilish noo'rin deb hisoblaydi. Olimning fikricha, agar vira to'lovi bo'yicha insonni kim o'ldirgani noma'lum bo'lsa, bu to'lov butun jamiyat tomonidan amalga oshiriladi [5]. Shu sababli, bunday holatda viraning sug'urta bilan hech qanday umumiy jihati yo'q. Bundan kelib chiqadiki, “sug'urta” atamasi faqat odam o'ldirishdan kelib chiqadigan munosabatlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Islom moliyasida sug'urtaga o'xshash boshqa moliyaviy instrumentlardan, jumladan, zakotdan ham foydalaniladi. Ayrim mualliflarning fikricha, ushbu moliyaviy instrument islom moliyasida sug'urtaning o'rnini bosuvchi vosita sifatida qaralgan. Jumladan, Yusuf al-Qaradaviy fikriga ko'ra, islom moliyasidagi zakot fondlarida shakllangan mablag'lar “qarz og'iriga tushganlar”ga qaratilgan. “Qarz bilan og'rigan” tushunchasining mohiyati yong'in, suv toshqinlari va suv toshqinlari natijasida yashash joyidan, mulkidan va ishidan mahrum bo'lish hisoblanadi [6]. Shuningdek, ilk islom xalifaligida bayt al-mol shaklidagi davlat ijtimoiy sug'urta tizimi tashkil etilgan [8]. Bayt al-mol davlat xazinasi bo'lib, u zakot, g'anima (harbiy o'ljaning beshdan bir qismi), haraj (yer solig'i), jizya (dinsizlardan solig'i), egasiz va garovga olingan mulk hisobiga shakllangan.



Bizning fikrimizcha, diya, zakot va Bayt al-mal kabi moliyaviy vositalar sug'urta tizimining ayrim jihatlarini o'zida aks ettirib, jamiyatning muhtoj va nochor qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, G'arb davlatlari mohiyatan zakotga asoslangan ijtimoiy soliq kabi tushunchalarga asrlar davomida o'tib kelganini inobatga olsak, bu vositalarning ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi o'rni yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada takaful sug'urtasi modelining joriy etilishi bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi tahlil qilinib, uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqotda taqqoslash, analiz, sintez kabi usullar yordamida takaful sug'urtasining an'anaviy sug'urtadan farqlari va uning milliy sug'urta bozoriga mosligini baholashga e'tibor qaratilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Takaful operatsiyalarini joriy etish aholining moliyaviy xizmatlardan kengroq foydalanishiga imkon yaratadi, ayniqsa, islom moliyasi bo'yicha yetakchi mamlakatlardan xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashadi. Shuningdek, an'anaviy sug'urta bilan bir qatorda alternativ sug'urta mahsulotlarini taqdim etish va risklarni umumiy fond orqali taqsimlash imkonini beradi. Takaful bozorini rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish, moliyaviy infratuzilmani shakllantirish, aholi va biznes vakillarini xabardor qilish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim.

An'anaviy sug'urta zamonaviy kapitalistik iqtisodiyotning bir qismi bo'lib, sug'urta kompaniyalari mijozlardan yig'ilgan mablag'larni boshqarib, foyda olishga intiladi. An'anaviy sug'urta tijorat maqsadiga asoslangan bo'lib, unda kompaniyaning foyda olishi asosiy maqsad hisoblanadi. Islom sug'urtasi (Takaful) esa islomiy tamoyillarga asoslangan bo'lib, uning maqsadi shaxslar va jamiyat o'rtasida o'zaro yordam va hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. Bu tizim Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) davrida mavjud bo'lgan o'zaro yordam tamoyillariga asoslanadi. Quyidagi 1-jadvalda an'anaviy va islom sug'urtasi o'rtasidagi farqli jihatlar keltirilgan.

An'anaviy sug'urta va islom sug'urtasi (Takaful) o'rtasida bir qancha muhim farqlar mavjud bo'lib, asosiy farqlar sirasiga faoliyat tamoyillari, risklarni boshqarish usuli, foyda va investitsiya yo'nalishlari hamda shaffoflik darajasi kiradi. Islom sug'urtasi o'zaro yordamga asoslangan tizim bo'lib, shariat qoidalariga rioya qilgan holda ishtirokchilarga moliyaviy himoya taqdim etadi.

### **1-jadval**

#### **An'anaviy sug'urta va islom sug'urtasi o'rtasidagi farqli jihatlar**

<b>Asosiy jihatlar</b>	<b>Islom sug'urtasi (Takaful)</b>	<b>An'anaviy sug'urta</b>
Tamoyillar	Shariat qoidalariga asoslanadi (ribo, qimor va noaniqlik taqiqlanadi)	Tijorat maqsadida tashkil etiladi, shariat cheklovlariga rioya qilmaydi
Risklar taqsimoti	Ishtirokchilar o'zaro risklarni bo'lishadi	Sug'urta kompaniyasi riskni o'z zimmasiga oladi
Sug'urta mukofoti	Ishtirokchilarning jamg'armasi sifatida to'planadi va boshqariladi	Sug'urta kompaniyasining daromadi hisoblanadi



Shartnomaviy tuzilma	Hamkorlik va o'zaro yordam tamoyiliga asoslanadi	Tijorat shartnomasi asosida ishlaydi
Investitsiya yo'nalishi	Faqat islomiy moliyaviy vositalarga investitsiya qilinadi	Har qanday daromadli yo'nalishga investitsiya qilinishi mumkin
Daromad taqsimoti	Ishtirokchilarga ortiqcha mablag' qaytarilishi yoki reinvestitsiya qilinishi mumkin	Kompaniya foyda ko'radi va aksiyadorlarga taqsimlanadi
Tartibga solish	Shariat kengashi tomonidan nazorat qilinadi	Davlat regulyatorlari tomonidan nazorat qilinadi
Risk yondashuvi	O'zaro javobgarlik va taqsimotga asoslangan	Sug'urta kompaniyasi riskni individual javobgarlik sifatida qabul qiladi

Aksariyat iqtisodchi olimlar "islom sug'urtasi" va "takaful" tushunchalarini sinonim sifatida talqin qilishadi. Zamonaviy moliya tizimida ushbu ikkala atama deyarli bir ma'noda ishlatiladi. Dastlab, "islom sug'urtasi" atamasi dunyodagi birinchi islom sug'urta kompaniyasi — Sharika at-Ta'amin al-Islomiya tomonidan amalga oshirilgan mulk sug'urtasi turlarini ifodalash uchun qo'llanila boshlangan.

1984-yilda Malayziyada "Takaful qonuni" qabul qilinishi islom sug'urtasining rivojlanishiga turtki bo'lib, "takaful" atamasining keng qo'llanilishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, Sudanda 2003-yilda qabul qilingan "Sug'urta va takaful to'g'risida"gi qonunida islomiy sug'urta mulkni sug'urtalashni nazarda tutishi, takaful esa shaxsiy sug'urtaga qaratilishi keltirilgan. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarida islomiy sug'urta xizmatlarini joriy etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda.


"Takaful" va "Islom sug'urtasi" o'rtasidagi farqlarni siyosiy va huquqiy sabablari mavjud. Misol uchun, Qozog'istonda islomiy sug'urta xizmatlarini joriy etish bo'yicha tayyorlangan qonun loyihasida aholi, xo'jalik subyektlari va tartibga soluvchi organlar tomonidan ortiqcha savollar tug'ilmasligi uchun xorijiy atamalar (takaful) ishlatilmasligiga qaror qilindi. Boshqa tomondan, "takaful" atamasini qo'llashni ma'qul ko'rganlar bu tushunchani sug'urta, ya'ni tavakkal savdosi yoki tijorat faoliyati emas, balki uning ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro yordamga asoslangan o'ziga xos sheriklik sifatida izohlaydilar. Bu holatda, "sug'urta" tushunchasi "takaful" bilan birga qo'llanganda ham mazmunan mos kelmaydi.

Takaful tushunchasi "kafala" fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, arab tilidan tarjima qilinganda "bir-biriga o'zaro kafolat berish" degan ma'noni anglatadi. Qur'oni Karimning Moida surasi, 2-oyatida:

"Taqvo va yaxshilik (birr) yo'lida bir-biringizga yordam bering, gunoh va adovatda yordam bermang" deb keltirilgan.

Bu oyat islom sug'urtasi bo'yicha tadqiqot olib borgan barcha olimlarning ilmiy izlanishlarida keltirilgan. Yuqoridagi oyatda bayon qilingan o'zaro yordam tushunchasiga ko'ra, mo'minlar bir-birlariga har tomonlama yordam berishlari, jumladan, ulardan biri baxtsizlikka uchragan taqdirda ham qo'llab-quvvatlashlari kutiladi.

Islom sug'urtasining turli modellarining mavjudligi takaful jamg'armasini boshqarishga yondashuvlardagi farqlar bilan bog'liq. Islomiy sug'urta kompaniyasi tomonidan olingan foydaning tabiati fondni boshqarish modelini tanlashga bog'liq. Islom sug'urtasining asosiy modellari 1-rasmda keltirilgan.



## 1-rasm. Islom sug'urtasining asosiy modellari

Sof mudoraba – Ishtirokchilar (sug'urta qildiruvchilar) o'z mablag'larini takaful jamg'armasiga qo'shadi, operator (takaful kompaniyasi) esa bu mablag'larni boshqaradi. Foyda va zarar oldindan kelishilgan ulush asosida taqsimlanadi.

Modifikatsiyalashgan mudoraba – Oddiy mudoraba modelidan farqli ravishda, operatorga xizmat ko'rsatish uchun ma'lum ma'muriy xarajatlar yoki ustama haqi belgilanishi mumkin.

Agent modeli (vakala) – Takaful kompaniyasi ishtirokchilarning vakili sifatida harakat qiladi va ulardan belgilangan komissiya yoki boshqaruv haqi oladi.

Modifikatsiyalashgan agent modeli – An'anaviy vakala modelidan farqli ravishda, operator ishtirokchilarga foyda yoki ziyon taqsimotida ishtirok etishi mumkin.

Aralash (gibrid) model (vakala + mudoraba) – Ushbu modelda operator boshqaruv xizmatlari uchun agentlik (vakala) haqi oladi va investitsiya faoliyatidan foyda mudoraba modeli asosida taqsimlanadi.

Agentlik + vaqf modeli – Ishtirokchilarning badallari avval vaqf jamg'armasiga yo'naltiriladi, so'ngra operator ushbu jamg'armani boshqaradi va vakillik haqi (vakala) asosida daromad oladi.

Takaful bozorining rivojlanish tendensiyalariga to'xtalar ekanmiz, so'nggi yillarda global makroiqtisodiy muhitda yuzaga kelgan geosiyosiy keskinliklar, koronavirus pandemiyasi kabi bir qancha omillar IFSI (Islomiy moliya sanoati) o'sishi va moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatdi.



Global IFSning aktivlari 2023-yilda 2022-yilga nisbatan qariyb 4 foizga oshgan holda 3,38 trln. AQSh dollariga yetdi. Ushbu holat iqtisodiy noaniqliklarga qaramay, sohaning barqaror rivojlanayotganligidan dalolat beradi (2-jadval).

## 2-jadval

### Global IFSning 2023-yilda sektorlar va mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi [8]

Hudud	Islomiy bank aktivlari (mlrd. USD)	Sukuk muomalada (mlrd. USD)	Islomiy jamg'arma aktivlari (mlrd. USD)	Islomiy sug'urta badallari (mlrd. USD)	Jami (mlrd. USD)	Ulushi (foizda)
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani (EAP)	313,83	411,25	38,13	5,75	768,96	21,80
Yevropa va Markaziy Osiyo (ECA)	79,70	102,02	46,24	0,61	228,57	8,30
Ko'rfaz Hamkorlik Kengashi (GCC)	1,463,91	292,96	28,16	14,64	1,847,42	52,50
Sahroi Kabir Afrikasi (SSA)	13,36	3,20	3,50	0,01	19,20	0,70
Janubiy Osiyo (SA)	83,58	19,63	5,13	0,24	108,58	3,10
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (GCCdan tashqari MENA)	417,79	6,30	0,07	2,79	427,82	12,70
Boshqalar	-	14,64	11,06	-	25,70	0,90
<b>Jami</b>	<b>2372,17</b>	<b>850,00</b>	<b>132,29</b>	<b>24,05</b>	<b>3378,51</b>	<b>100</b>
<b>Ulushi (foizda)</b>	<b>70,21</b>	<b>25,16</b>	<b>3,92</b>	<b>0,71</b>	<b>100</b>	

Islomiy moliya aktivlarining mintaqalar bo'yicha taqsimoti ushbu sohaning tobora xilma-xil va globallashtirib borayotganligini aks ettiradi.

Ko'rfaz Hamkorlik Kengashi (GCC) mintaqasi 2023-yilda global islomiy moliya aktivlarining 50% dan ortig'ini egallab, IFSIdagi markaziy rolini namoyon etdi. Bu, asosan, mintaqadagi islomiy bank sektorining sezilarli o'sishi va ustunligi bilan izohlanadi. Bank sektoridan tashqari, GCC mintaqasida rivojlanib borayotgan sukuk bozori va islomiy sug'urta



(takaful) segmentlariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, ammo bu segmentlar bank sektoriga nisbatan hali kichik hajmda.

Sharqiy Osiyo va Tinch okeani (EAP) mintaqasi islomiy moliyaning muhim bozorlaridan biri bo'lib, 2023-yilda global islomiy moliya aktivlarining 20% dan ortig'ini tashkil etdi. Bu hududda bank va no-bank sektorlarining rivojlanishi natijasida islomiy moliya tarmog'i diversifikatsiyalangan shaklda rivojlanmoqda. Ayniqsa, Malayziya ushbu hududda yetakchi bo'lib, mukammal va rivojlangan islomiy moliya ekotizimini shakllantirgan.

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (MENA, GCC'dan tashqari) mintaqasida islomiy bank aktivlari sezilarli ahamiyatga ega. Biroq, sukuk bozori va islomiy investitsiya jamg'armalari hali yetarli darajada rivojlanmagan. Ushbu segmentlarning o'sishini ta'minlash va diversifikatsiyani kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sahroi Kabir Afrikasi (SSA), Yevropa va Markaziy Osiyo (ECA) hamda Janubiy Osiyo (SA) mintaqalari islomiy moliya sanoatida kichik, ammo jadal rivojlanayotgan bozorlarni ifodalaydi. Ushbu hududlarda hozircha ulush nisbatan kam bo'lsa-da, shariatga mos moliyaviy mahsulotlarga talab ortib borayotgani ulkan o'sish imkoniyatlarini yaratmoqda.

2023-yilda global islomiy sug'urta sanoati 6,5% o'sishni qayd etdi, bu asosan umumiy islomiy sug'urta hissalarining sezilarli oshishi bilan bog'liq. Biroq, oila sug'urtasi hissalarini 9% ga pasaygan, chunki yuqori inflyatsiya iste'molchilarning tejash imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramay, islomiy sug'urta bozorining o'sish istiqbollari, xabardorlikning oshishi va majburiy sug'urta qamrovining kengayishi tufayli, asosiy va chekka bozorlar bo'yicha ijobiy qolmoqda. Texnologiyani qabul qilish va qo'shilishlar va birlashmalarni tartibga solish bo'yicha rag'batlantirish sanoatning kelajagini shakllantirishga yordam beradi.

Sanoatning mustahkamligi inflyatsiya, da'vo tendensiyalari va foydalilik bosimlari bilan qarshi kurashishga to'g'ri keladi, ayniqsa siyosat stavkalari oshirilganida. Potensial xavf va zaifliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Da'vo xarajatlarining oshishi sug'urta shartnomalarining bajarilishi va foydalilikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.


- Geosiyosiy noaniqliklar va valyuta o'zgarishlari chet el valyutalariga bog'liq xavflarni oshiradi.

- Bozorni konsolidatsiyalashga qarshi regulyatorning bosimi bozorning haddan tashqari markazlashishiga olib kelishi mumkin.

- Iqlimga aloqador ofatlar iqlim xavfini boshqarishda etarlicha imkoniyatlarning mavjud emasligi.

- Demografik o'zgarishlar va sog'liqni saqlash xarajatlarining oshishi oila islomiy sug'urtasi bo'yicha o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2024-yilda islomiy sug'urta sanoati iqtisodiy tiklanish, tartibga solish islohotlari va raqamli transformatsiya tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Shunga qaramay, da'vo inflyatsiyasi, geosiyosiy noaniqliklar va bozor konsolidatsiyasining potensial muammolari mavjud. Proaktiv tartibga solish choralari va texnologik yutuqlar xavflarni bartaraf etish va sanoatning barqarorligi hamda mustahkamligini ta'minlash uchun muhimdir.



### 3-rasm. Global islomiy sug'urta hissalarini (mlrd. AQSh dollari) [8]

Davlat siyosati islohotlari tartibga solish tizimlarini mustahkamlash va bozorni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashda davom etishi mumkin, bu esa mahsulot innovatsiyasi va diversifikatsiya uchun qulay muhit yaratadi. Oddiy sug'urtachilar tomonidan islomiy sug'urta oynalarining tashkil etilishi moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishga va bozor imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Oila islomiy sug'urta segmenti, ipoteka bilan bog'liq va tejash bilan bog'liq mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi tufayli kuchli o'sishga erishadi. Tezlashayotgan raqamli transformatsiya mahsulotlar narxining arzonlashishi, kirish imkoniyatlari va mijozlar tajribasini yaxshilashda davom etadi, bu islomiy sug'urtani kengroq auditoriyaga jozibador qiladi.

Uzoq muddatli muammolar orasida demografik o'zgarishlar va sog'liqni saqlash xarajatlarining oshishi oila islomiy sug'urtasi segmentining o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xarajatlarning oshishi sharoitida arzon va keng qamrovli sug'urta taqdim etish sanoat uchun muhim masala bo'lib qoladi. Bu muammolarni hal qilish va o'sish imkoniyatlaridan foydalanish islomiy sug'urta sektorining kelajakdagi muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Proaktiv tartibga solish choralari xavflarni bartaraf etish va segmentning barqarorligi hamda mustahkamligini ta'minlash uchun zarur, jumladan:

- Sug'urta shartnomalarini to'g'ri rasmiylashtirish amaliyotlarini va risk asosida narxlash mexanizmlarini rivojlantirish
- Islomiy sug'urta uchun tartibga solish tizimlarini mustahkamlash
- Stress testlarini amalga oshirish va iqlim xavfini boshqarish uchun riskni modellashtirishni kuchaytirish
- Potensial zaifliklar va xavflarni kuzatish, jumladan, tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni.

2023-yilning 3-choragida global islomiy sug'urta hissalarini 6,5% o'sdi va 24,05 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Bu asosan umumiy islomiy sug'urta segmentining 21% o'sishi



bilan bog'liq. O'sish yuqori da'vo hajmi va yuqori inflyatsiya ta'sirida bo'lgan chakana va ba'zi tijorat tarmoqlarida xavflarni qayta baholashni aks ettiradi. Ushbu tendentsiya davom etishi kutilmoqda va xavflar bilan yaxshiroq narxlash mosligini ta'minlaydi.

Ko'plab islomiy sug'urta bozorlarida mavjud bo'lgan himoya teshiklari, 2023-yilda kuzatilgan tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishi, bu teshiklarni sezilarli darajada kuchaytirdi. Talabning kutilayotgan o'sishi va potentsial sig'im cheklovlari 2024-yilda yanada murakkab bozor sharoitlarini yaratishi mumkin, ayniqsa umumiy islomiy sug'urta segmenti uchun. Boshqa tomondan, oila islomiy sug'urtasi hissalarini 2023-yilning 3-choragida 1% ga o'sdi, bu yuqori inflyatsiya iste'molchilarning tejash imkoniyatlarini kamaytirishi bilan izohlanadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Ba'zi mamlakatlarda an'anaviy sug'urta operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashtirilgan "darchalar" ochishga ruxsat beriladi. O'z vaqtida deyarli barcha yirik an'anaviy banklar mijozlarning islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan qiziqishini inobatga olib, ixtisoslashgan islomiy darchalarni tashkil etgan. Xuddi shunday holat sug'urta sohasida ham kuzatilgan bo'lib, AIG, Allianz, HSBC Amana (HSBC guruhining islomiy bo'limi) kabi yirik moliyaviy institutlar Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida islomiy sug'urta darchalarini ochgan.

Biroq, barcha musulmon huquqshunos olimlar an'anaviy sug'urta kompaniyalarining shariat tamoyillari asosida ishlaydigan "darchalar" yaratish g'oyasini qo'llab-quvvatlamaydi. Bunga 2012-yilda Pokiston Qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasining an'anaviy sug'urta kompaniyalariga islomiy "darchalar" ochishga ruxsat berish haqidagi qarori bilan bog'liq muhokamalar misol bo'la oladi. Bu qarorga qarshi chiqqanlar Malayziya tajribasini misol keltirgan, chunki ushbu mamlakatda iqtisodiy faoliyatga oid shariat qoidalarini talqin qilishda nisbatan liberal yondashuv ustun bo'lib, an'anaviy sug'urta kompaniyalariga islomiy darchalar yaratishga ruxsat berilmaydi.

An'anaviy sug'urta konsepsiyasining takaful operatsiyalaridan tubdan farq qilishi islomiy darchalar ochishga qarshi asosiy dalillardan biridir. An'anaviy sug'urtada kompaniyaning asosiy vazifasi sug'urtalovchilarning risklarini sug'urta mukofoti olish hisobiga himoyalashdan iborat bo'lsa, takaful modelida risk ishtirokchilar (polis egalari) o'rtasida taqsimlanadi. Shu sababli, ushbu ikki moliyaviy operatsiyalarni bir xil tashkiliy tuzilma doirasida birlashtirish murakkab hisoblanadi.

Shuning uchun islom sug'urtasi an'anaviy sug'urta bilan bir xil xizmatlarni ko'rsatishga mo'ljallangan bo'lganligi sababli, u mohiyatan mustaqil, muqobil sug'urta tizimini ifodalovchi ham tijorat, ham o'zaro shakllarda mavjud bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, islom sug'urtasini faqat o'zaro yoki faqat tijorat sug'urtasining islomiy muqobili sifatida tasvirlash to'g'ri emas. Chunki sug'urtaning har ikkala shakli ham islom qadriyatlarini asosida shakllangan takaful konsepsiyasida o'z ifodasini topgan.

### **References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni. 2023-yil 9-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son qarori. 2024-yil 1-mart.



3. Mohd. Ma'sum Billah. Islamic Insurance: Its Origins and Development // Arab Law Quarterly. 1998. № 13 (4). P. 386 – 422.
4. Рыбников С.А. Очерки из истории страхования в России. Очерк первый (Организация взаимопомощи) // Вестник государственного страхования. 1927. № 19 – 20. С. 111.
5. Райхер В.К. Докапиталистическое страхование // Страхование право. 1999. № 4. С. 87 – 88.
6. Syed Khalid Rashid. Takaful Financed by Zakah Funds for Muslim Social Security: With Special Reference to Malaysia // Journal of Objective Studies. 1998. Vol. 10, №. 1. P. 102 – 115.
7. Юсуф Кардави. Дозволенное и запретное в исламе: пер. с араб. М. Саляхетдинова. М., 2005. С. 260 – 261.
8. [www.ifsb.org](http://www.ifsb.org) – Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashining rasmiy veb sahifasi.